

**FARG'ONA VILOYATIDA REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARNI
KONTRASEPTIV VOSITALARNI QO'LLASH USULLARI HAQIDAGI
XABARDORLIK DARAJASINI O'RGANISH**

Farg'ona Jamoat Salomatligi Instituti

Akusherlik Va Ginekalogiya magistri

Olimova Misriyo Jahongir qizi

Akusherlik Va Ginekalogiya Asissenti

Jabborova Munisxon Abdurahmon qizi

Ilmiy rahbar Phd. Djuraxadjayeva Gulnora Sattievna

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona viloyatida reproduktiv yoshdagi ayollarni kontraseptiv vositalarni qo'llash usullari haqidagi xabardorlik darajasini o'rganish, zamonaviy, samarali va xavfsiz bo'lgan kontraseptsiya usullari, Reproductiv yosh, Bachadon ichi kontraseptiklari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Reproductiv, infratuzilmani, BMT, JYYK, Oral kontraseptiklar, Qin halqalari, Plastirlar, Demografiya.

Аннотация: В данной статье представлена информация об уровне информированности женщин репродуктивного возраста Ферганской области о методах использования контрацептивов, современных, эффективных и безопасных методах контрацепции, репродуктивном возрасте, внутриматочных контрацептивах.

Ключевые слова: Репродуктивная система, инфраструктура, ООН, JYK, Оральные контрацептивы, Вагинальные кольца, Пластыри, Демография.

Abstract: This article provides information on the level of awareness of women of reproductive age in Fergana region about the methods of using contraceptives, modern, effective and safe methods of contraception, reproductive age, intrauterine contraceptives.

Key words: Reproductive, infrastructure, UN, JYK, Oral contraceptives, Vaginal rings, Plasters, Demography.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida aholi salomatligi va sog'liqni saqlash tizimi mustaqillikning birinchi kunlaridanoq davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta'minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi.

Biz tibbiyot xodimlari Farg'ona viloyatidagi reproduktiv yoshdagi ayollar bilan kontraseptiv vositalarni qo'llash usullari, ularni qay tarzda qo'llash va nojo'ya qo'llaganda qanday kasalliklar kelib chiqishi haqida ma'lumotlar berdik.

Reproduktiv yosh (shuningdek, tug'ish yoki fertil yoshi) — bu ayolning hayotidagi bolani ko'tarish va tug'ish qobiliyatiga ega bo'lgan davr. Demografiyada bu davrning davomiyligi uning chegaralarini ko'rsatish bilan tavsiflanadi. Ayollar uchun reproduktiv yosh deganda 15-49 yosh tushuniladi (tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda — 15-44 yosh). Qoida tariqasida, reproduktiv yoshdagi ayollarning ulushi ancha barqaror va 25-30 % ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdagi qaroriga ko'ra:

Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalar uchun zamonaviy, yuqori texnologik, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hamda 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq:

1. Quyidagilar reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

- reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy yordam hajmini kengaytirish va sifatini oshirish;

- ayollar va bolalarga malakali, ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;

- homilador ayollar va bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy xizmat ko'rsatadigan muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek, ularning binolarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va yangilarini qurish;

- nogironligi bo'lgan bolalarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirish, ularning jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- zamonaviy talablarga javob bera oladigan va ilg'or texnologiyalarni egallagan yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar hamda bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash;

ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA

Darhaqiqat, fan tarixchisi Merrili Borellning fikriga ko'ra, tug'ilishni nazorat qilish harakatining qonuniyligini ta'minlashda biologlar asosiy rol o'ynagan. Afsuski, 1920-yillarda olimning qiziqishini uyg'otishning eng yaxshi usuli yevgenika tili edi (bu o'sha paytda reproduktiv salomatlikni o'rganishdan ko'ra asosiyroq edi). Sangerning ta'kidlashicha, "tug'ilishni nazorat qilish "yaroqsiz" tug'ilish darajasini cheklash uchun zarur edi", deb yozadi Borell. Bugungi kunda qanchalik dahshatli tuyulmasin,

Sangerning yevgenikaga asoslangan argumenti ishladi - biologlar kontratsepsiyadan inson evolyutsiyasini nazorat qilish vositasi sifatida foydalanish va'dasi bilan vasvasaga tushishdi.

1937-yilda Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi tug'ilishni nazorat qilish vositalaridan foydalanishga ruxsat berdi va Amerika Tug'ilishni nazorat qilish federatsiyasi uni ta'minlash uchun davlat sog'liqni saqlash dasturlarini rag'batlantirish uchun tuzildi. 1940-yilda nashr etilgan Life Magazine hikoyasida Janubiy Karolina rasmiylari kambag'al onalarga kontratsepsiyani taklif qilish uchun davlat pullaridan foydalanganliklari uchun maqtovlar yozilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda zamonaviy, samarali va xavfsiz bo'lgan kontrasepsiya usullari juda ko'p. Ularni shartli ravishda guruhlariga bo'lish mumkin:

1. **Homiladorlikdan saqlovchi tabiiy usullar** — qoida tariqasida, hayz sikli fazasini aniqlash va jinsiy aloqani to'xtatilishiga asoslanadi. Ular ishonchli emas va jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklardan (JYYK) himoya qilmaydi. Shunga qaramasdan, bu usullarga ko'pchilik amal qiladi.

2. **Baryer usullar** — homiladorlikni oldini olish uchun samarali bo'lishi mumkin, prezervativlar esa JYYK`dan himoya qilishda ham. Samaradorlik darajasi ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liq. Ko'pincha ularni yanada samaraliroq usullar bilan birgalikda qo'llash tavsiya etiladi.

3. **Bachadon ichi vositalari** — tarkibida metall (mis, kumush) va gormonlar saqlashi mumkin, ularning ta'siri kimyoviy moddalarning spermatozoidlar va tuxum hujayraga, bachadon bo'yni shillig'iga va endometriyga ta'siri bilan tushuntiriladi. Bu usulning samaradorligi yuqori, lekin ular JYYK`dan himoyalamaydi. Bachadon ichi spirali haqida→

4. **Gormonal usullar** — juda samarali, lekin JYYK`dan himoyalamaydi. Bunga oral kontraseptivlar (tabletkalar), plastirlar, vaginal halqalar, implantatlar va favqulotda kontrasepsiya usullari kiradi.

Bachadon ichi kontrasepsiyasi

A'zoga, ya'ni bachadon bo'shlig'iga "yot" bo'lgan jismlarni joylash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bachadon ichi kontrasepsiyasi yuqori iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan masalan Xitoy, Rossiya va Skandinaviya mamlakatlari. Bu usul XX asr boshlarida ilk bor qo'llanilgan va bunda bachadon ichiga turli xil metallardan tayyorlangan halqalar joylashtirilgan. 1935 yilda bachadon ichi kontrasepsiyasidan foydalanish inkor etildi, bunga sabab infeksiyon asoratlar ko'payib ketganligidir.

1962-yilda Lipps bachadon ichiga plastikmassadan tayyorlangan va uning uchida tortib olish uchun maxsus ipchasi bor bo'lgan kontraseptiv vositani o'ylab

topdi. Shu vaqtdan boshlab bachadon ichi kontrasepsiyasini qo'llash takomillashib bormoqda.

Bachadon ichi kontraseptiklari ikki xil bo'ladi: inert va medikomentoz. Inert kontraseptiklar hozirgi kunda qo'llanilmaydi. Medikomentoz vositalar esa o'zida metal yoki gormonlar saqlaydi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- MultiloadCu-375 – F harfini eslatuvchi spiral, mis bilan qoplangan, 5 yilgacha xizmat qiladi;

- Nova-T – T harfi shaklida, mis bilan qoplangan;

- CooperT 380 A – T-shaklidagi spiral, 6 yilgacha xizmat qiladi;

- Mirena – hozirgi kunda eng mashhur bo'lgan kontraseptiv spiral, bachadon bo'shlig'iga doimo levonorgestrel gormonini ajratib turadi, bu gormon esa progesteron gormoni bilan bir xil ta'sirga ega, ya'ni homiladorlik ro'y berishiga qarshilik ko'rsatadi va davolovchi xususiyatga ham ega.

Gormonal kontrasepsiya

Gormonal kontrasepsiya gestagen yoki esterogen gormonlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Gormonal kontrasepsiya turlari

Kombinatsiyalangan:

- Oral kontraseptiklar;

- Qin halqalari;

- Plastirlar.

Gestagen:

- mini—pili;

- ineksion;

- implantatsiyalanuvchi.

Tabiiy usullari

Zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, tuxum hujayra ovulyatsiyadan keyin o'rtacha olti soatdan bir sutkagacha urug'lanish qobiliyatini saqlab turadi. Spermatozoidlar ayol jinsiy a'zolarida 2-8 kungacha yashashga qodir, lekin tuxumni urug'lantirish qobiliyatiga faqatgina bachadonda va bachadon nayida olti-yetti soat bo'lganidan so'ng erishadi.

Buning mazmuni: ovulyatsiyadan sakkiz kun oldin va ovulyatsiya kuni himoyalangan jinsiy aloqa qilish homiladorlikka olib kelishi mumkin. Bu nazariy jihatdan. Amalda — siklning har qanday kunida homilador bo'lib qolish mumkin. Chunki insonda nafaqat barmoq izlari va ko'z rangi, balki uning o'zi va jinsiy hujayralarining hayot davomiyligi ham individualdir. Shu sababli, istalmagan homiladorlikdan hayz siklning har qanday kunida himoyalani kerak!

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila qurganda erkak va ayol o'z jinsiy nafsini qondirish uchun aloqada bo'lishadi, lekin bunda ikkalasining ham jismoniy va

ruhiy salomatliklariga jiddiy salbiy ta'sir ko'satmasliklari kerak. Buning uchun ular kontraseptiv vositalardan tog'ri foydalanishlari va albatta bir oyda bir marta bo'lsa ham doktorlarimiz qabuliga maslahat olishliklari uchun yoki ko'rikdan o'tib turishlarini maslahat beramiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. „Total fertility rate“ (en). The World Factbook. CIA. 31-dekabr 2020-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 6-avgust 2020-yil.
2. 12. G'.B. Shoumarov va boshqalar. Oila psixologiyasi.– T., 2008.
3. 13. Y.N. Allayorov. Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya.– T., 2005.
4. <https://daily.jstor.org/birth-controls-slow-path-mainstream/>
5. <https://daily.jstor.org/birth-controls-slow-path-mainstream/>
6. M.A, J. ., & S.M, S. . (2022). PLASENTA YETISHMOVCHILIGI KASALLIGI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(3), 291–294. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/573>